

Abdug'ofurov Muhammadqodir

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Magistratura 1 bosqich talabasi

+ 998908217570

Ilmiy Rahbar : Yunusova Buhojalhon Alimovna

Andijon Davlat Universiteti : O'zbekiston Tarixi Kafedrasi

Katta O'qituvchisi

FOTIH SULTON MEHMETNING ISTANBUL FATHI

Annotatsiya : Ushbu maqolada Sulton Mehmet Fotixning shaxsiyati haqida boqiy shaharni qamal qilishi va bu qamaldan so'ngra shahar aholisi ijtimoiy hayotini o'zgarishiga fotihning avlodlari tomonidan amalga oshirilgan arxitekturasi bilan bir qatorda Istanbul shahrining bugungi kun Turkiya xayotidagi o'rniga bag'ishlangan .

Абстрактный : В данной статье речь идет о личной жизни султана Мехмета Завоевателя, осаде бессмертного города, и после этой осады жители города вместе с архитектурой, реализованной потомками конкистадора, посвящены месту Стамбула в Жизнь Турции сегодня.

Annotation : This article deals with the personal life of Sultan Mehmet the Conqueror, the siege of the immortal city, and after this siege, the inhabitants of the city, along with the architecture implemented by the conquistador's descendants, are devoted to the place of Istanbul in the life of Turkey

Kalit so'zlar : Fotih Sulton Mehmet shaxsiyati Istanbulning fathi haqida payg'ambar bashorati , fathga tayyorgalik va uning boshlanishi , Fotih Mehmet sulton , Oq Shamsitdun , Vizantiya imperiyasi , imperator , zambaraklar , fotihning sakkiz til bilganligi , Venetsiya , Jeneva va boshqalar

Ключевые слова : Предсказание пророка о завоевании Стамбула , Личность Фатех Султан Мехмет , подготовке к завоеванию и его начале, султана Мехмете Завоевателе, Белом Шамситдуне, Византийской империи, императоре, пушках, знании завоевателем восьми языков, Венеции, Женеве и т. д.

Keywords : The prophet's prediction about the conquest of Istanbul, Fateh Sultan Mehmet Personality , preparations for the conquest and its beginning , Sultan Mehmet the Conqueror , White Shamsitdun, the Byzantine Empire, the emperor, cannons, the conqueror's knowledge of eight languages, Venice, Geneva, etc.

Kirish : “ Oltin Ko'prik “ nomini olgan (Konstantinopol) hozirgi Istanbul shahri o'z davrida ikki qit'ani bog'lagan va tarixiyligi jihatidan Yevro Osiyo Materigida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan . Uning bugungi ko'rinishi zamonaviy va milliy arxitekturasi bilan ham , sayyohlik uchun qulay geografiyasi bilan ham dunyo ahliga malumdur . Lekin uning bugungi ko'rinishiga sabab bo'lgan omillarni ham unutmash kerak bu esa shaharning Turk Usmonli Sultoni Fotih Mehmet tomonidan fatx etilishi davriga aloqador . Fotih Sultonning shaharni qamal qilishligi nafaqat tarixiyligi bilan balki bu uning murakkab shaxsiyati bilan ham bog'liq edi . Maqolada uning shaxsiyatiga e'tibor qaratilishi fathning yoritilishi va uning keyingi davrlardagi shahar hayotiga ta'siri haqida ham batafsil to'xtalib o'tiladi . Bu mavzu jahon tarixshunoslari uchun keng qamrovli mavzu hisoblansa- da “O'rta Osiyo” va “O'zbekiston” mintaqalarida o'rganilishi nuqtayi nazaridan aytarli darajada e'tibor ko'rmagan

Fotihning shaxsiyati haqida internet manbalaridagi tayyorlangan postlar yoki bu mavzuga aloqador kontentlar orqali ma'lumot olish mumkin . Fath bilan bog'liq ko'pgina izlanishlarni turkolog va turk tarixchilari tomonidan turkiyada yevropada e'lon qilingan maqolalar , kitoblar va boshqalardan o'rganish mumkin .

Chunonchi fath haqida hali fath boshlanishidan oldin o'z davrida Payg'ambar Afandimiz Muhammad Mustafo (S.A.V) ning bashoratlari to'g'risidagi ma'lumotni uchramiz .

H.z. Muhammad, Istanbulning musulmonlar tomonidan fath qilingan joylar qatorida bo'lishini quyidagicha ta'kidlaydi: “Albatta, Istanbul fath qilinadi, uni fath qilgan askarning qo'mondonligi qanday go'zal qo'mondon va bu askar qanday go'zal askardir”. Bu hadislar arablarga katta ta'sir ko'rsatdi va ular Istanbulni 7 marta qamal qildilar. 7 yil davom etgan qamalda H.z. Muhammad payg'ambar bayroqdori. Eyüp shahid bo'lib, keyinchalik joylashuvi yo'qolgan bir joyda devorlar ostiga ko'mildi. Aqshemseddinga tushida ko'ringan Payg'ambar. Eyup dafn etilgan joyni xabar qiladi va bu tush askarning sa'y-harakatini oshirib, Istanbulning zabt etilishiga yordam beradi ¹

Albatta bu bashorat amalga oshadi va shahar qamal natijasida qo'lga kiritiladi. Maqolada ham aynan mana shu jarayonlar yoritiladi.

Fatih Mehmet (Muhammad) SHaxsiyati Haqida . Fotih Sulton Muhammad shaxsiyati o'z davri uchun yetuk va ancha murakkab edi. Turk tarixchilari tomonidan Uning 1432- yili 30 - mart sanasida Sulton Murod II ning uchinchi o'g'li o'laroq Usmonli Sultonligining o'sha paytdagi poytaxti Edirene tug'ilganligi , onasining ismi esa Huma (Humo) hotun bo'lganligi uning nasabi esa Chandaro'g'lu Isfendiyar beyning bir nabirasiligi haqida aytiladi.²

Onasi vafot etgach uning keyingi hayoti piri Oq SHamsuddin posho xazratlari bilan bevosita bog'liq edi . Chunki aynan shu shaxsning ta'limi fotihning kelajagini belgilab uning o'z ismini tarihg muhurlashiga sabab bo'ladi . Mehmet Sulton o'z davrining eng ilg'or bilimlarini oladi . Uning aql zakovoti haqida tarixshunoslar ajoyib ma'lumotlarni keltirib o'tishadi jumladan : Usmonli siyosat nazariyotchilari Imom Taskopruzoda, Sharafiddin Bidlisiy va boshqalar “Zill Alloh” tasavvufiy bashoratli atama – Xudoning [Yerdagi soyasi] so'zidan unumli foydalanib, davlatni kuchli davlatga aylantira olishgan.Allohning noibi bo'lgan Usmonli xalifalari to'rt shartga javob berishi kerak edi: adolat, jasorat, mo'tadillik va hikmat. Mehmet Fotih ana shunday hukmdorning mukammal varianti edi. U falsafa, ilm-fan va san'atning jonkuyar muxlisi edi. U Mulla Jomiy, Ali Qushjiy, Xo'jazoda va boshqalar kabi ko'zga ko'ringan alloma va ziyolilarga kitob yozish, ilmiy munozaralar o'tkazish va boshqa ko'p ishlarni topshirgan. O'zi ham Shayx Oq Shamsuddin rahnamoligida tasavvuf ilmiga qiziqqan. Agar Mehmet Fotih uzoqroq yashaganida, musulmonlar Yevropaning yuragiga yanada chuqurroq kirib, ularga qarshi Vatikan uyushtirgan koalitsiyani mag'lub etgan bo'lar edi balki. Ba'zi manbalarga ko'ra, Vatikanlik ruhoniyy bu Rusululloh sollallohu alayhi vasallamning davomchilaridan bo'lgan solih hukmdor, Islom dinining himoyachisidan juda qo'rquardi. Shu sababli bu nopok pontifik dastlab Fotihni nasroniylkni qabul qilishga taklif qiladi. Ammo rad javobini olgach, hukmdor uchun 49 yoshida vafot etgan Mehmet Fotihni zaharlashga urunadi. Bu sabab unchalik ishonchli deb bilinmasada, Yahudiy Yakub Posho tomonidan zaharlangan deb hisoblanadi .³

Fotih Sulton Mehmet 8 tilda gapiradi. Bu tillar birinchi navbatda turk , shuningdek, slavyan, yunon, arab, fors, lotin, ibroniy, xaldey va italyan tillaridir. U yoshligidan chet tillarini o'rganishni boshlagan va butun umri davomida ta'lim sohasida o'zini doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi xarakterga

¹ <https://www.tarihincinden.com/2019/05/istanbulun-fethi-ile-ilgili-kehanetler.html?m=>

² Süheyl Ünver, Fatih Külliyesi,1946, s. 160 v.d. ; F. Babinger, Mehmed's IL, des Eroberers, Mutter, Legende und Wirklichkeit. Münchener Beitrage zur Slavenskunde Festgabe für Paul Diels, München 1953.

³ https://t.me/ibtido_tarix

ega. Shu ma'noda u davlat boshqaruvi borasidagi ilk ta'lim va tarbiyani otasi Murod II dan oladi. U 8 tilda so'zlasha olgani uchun boshqa davlatlar bilan uchrashuvlar va yozishmalarni shaxsan o'zi boshqargan.⁴

Fotih Sulton tomonidan Konstantinopol shahrining qamal qilinishi va unga tayyorgarlik haqida qisqacha .

Konstantinopol shahri Rim Imperiyasi ikkiga bo'lingan davrda Sharqiy Rim imperiyasining poytaxti sifatida yangi tamaddunga beshik bo'lib xizmat qildi

Ming yillar davomida sharqiy imperiyaning poytaxti maqomiga munosibligini tarixining har qanday davrida ham ko'rsatdi. Biroq shahar imperiya tanazzuli sabab o'z ahamiyatini yo'qota boshlagan bir davrda shahar hayotida uning keyingi tarraqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan voqea sodir bo'ldi Bu shaharning Turk Usmoniylar tomonidan fath qilinishi edi . Fath uchun taqazolarning yetilishi fathni yana ham tezlashishiga olib keldi . Istanbulni zabt etish siyosiy sabablarga ko'ra ham zarur edi. Vizantiya imperiyasi knyazlarni g'azablantirdi. Shahzodalar bir-biriga qarshi yiqilib, taxt uchun kurashayotgan edi. Vizantiya o'zining joylashuvi tufayli Usmonlilar imperiyasining Rumelida o'sishiga to'siq bo'lgan. Anado'li bilan Rumeli o'rtasida hech qanday aloqa yo'q edi. Istanbulning qo'lga kiritilishi bilan bu to'siq barham topadi. Istanbulning zabt etilishi bilan Anadolu bilan Rumeli o'rtasida harbiy o'tish uchun hech qanday to'siq qolmaydi. Vizantiyaliklar Yevropadagi nasroniylarni g'ijg'ijlash orqali salib yurishlari uchun qulay sharoit yaratib berishdi. U Anadolu knyazliklarini Usmonlilar imperiyasiga qarshi qo'zg'atayotgan edi. Bu Anadoludagi turk birligining buzilishiga sabab bo'ldi. Iqtisodiy sabablar ham Istanbulni zabt etishni zaruratga aylantirgan omillardan biri edi. Istanbulning fath etilishi bilan Usmonli imperiyasi quruqlik va dengiz savdosida qulay mavqega ega bo'ladi. Shuningdek, u Ipak yo'lining bir tarmog'ida hukmronlik qiladi.⁵

Albatta ki bu jarayon uchun tayyorgarlik ham kerak edi buni yaxshi tushungan sulton mehmet fath uchun puxta tayyorgarlik ko'rgan edi. Va bu tayyorgarlik rejasi uning o'zi tomonidan ishlab chiqilganligi esa fathning tarixiyligini yana ham ortishiga sabab bo'ldi . Sulton Mehmet tayyorgarlik jarayonini sirli tutdi hech kimga oshkor qilmadi .Sulton ilk o'laroq Anadolu Hisorining (qal'asi) ning qarshisiga Rumeli Hisorini (qala'si) ni qurdirdi . Inshoot juda qisqa muddatda to'rt oy ichida qurib bitkazildi. Hisorning devorlariga o'z davrining ulkan to'plari (zambaraklari) joylashtirildi . Rumeli qa'lasining inshosi Vizantiya imperiyasini bezovta qila boshladi . Sababi endi Qora dengizdan Marmar dengiziga o'tish nuqtasining nazorati to'lig'icha usmonli turklar qo'lida edi . O'sha davrlard Venetsiya va Jeneva katta bir dengiz kuchiga ega edi .Sulton har ikki tomon bilan ham shartnomalar imzolash orqali Vizantiya imperiyasini chorasiz vaziyatda qoldirgan edi.⁶

Fathning Boshlanishi : “ Yoki men Istanbulni zabt etaman yoki Istanbul meni zabt etadi “ degan edi Sulton Mehmet fathdan oldin .⁷

Usmonli qo'shinlarining ilk qismi ikkinchi aprelda jangovar marshlar bilan karakatga tushdi va bu qo'shinlar bilan vizantiya imperiyasi askarlari orasida kichik harbiy to'qnashuv sodir bo'ldi. Biroq usmonli askarli qo'shinning ilg'or qismini ta'qib etib kelayotganini ko'rgan vizantiya askarlarining qochishdan va qal'a darvozarlarini yopishdan boshqa choralari qolmadilar . Qal'a ko'priklarini

⁴ <https://www.hurriyet.com.tr/egitim/fatih-sultan-mehmet-kac-dil-biliyor-ve-konusabiliyordu-42121078>

⁵ <https://www.islamveihsan.com/istanbulun-fethi.html>

⁶ Turgutlu Anadolu İmam Hatip Lisesi Tarih Dergi Ekibi İstanbul'un Fethi Fatih Sultan Mehmet Yayın No: 1Yayın Yönetmeni Varol ÖZTÜRK Tarih Öğretmeni Nurgül AKPINAR Araştırmacılar Yüksel AYDIN Mustafa AYDIN Recep ŞENTÜRK Fırat AKBAŞ Yusufcan YAĞIZ Dergi Tasarımı Ömer Faruk OKOLU Turgutlu Anadolu İmam Hatip Lisesi Fen ve Sosyal Bilimler Proje Okulu Selvitepe Mh. Dursun Savcı Sk. No: 2 Turgutlu/ Manisa (2) b

⁷ https://www.kitapyurdu.com/kitap/ya-ben-istanbulu-alacagim-ya-istanbul-beni/269748.html?srsId=AfmBOoryt9-nu8cRV_Eb3QGk4MYkj0T5pR8ehwTkiZnBmbH07tb1Q_M_

ko'tardilar va mudofaa tayyorgarliklarini favqulodda holatga keltirdilar .O'sha kunning o'zida turk qo'shinining boshqaruviga o'tgan Fotih Sulton Mehmet (Muhammad) II beshinchi aprelda Lycos (Bayramposho) vodiysining o'ng tomonidagitepalikning ustida . Maltepe chodirini qurdi . Marmara qirg'og'idan Oltin Shoxgacha cho'zilgan qirg'oq devorlarini dengiz tomondan ko'zdan kechirdi va o'z harbiy qismlarini o'zi oldindan tayyorlagan rejaga ko'ra devor oldiga Usmonli brigadalarining eng samarali quroli edi to'plardan samarali foydalanilgan bu qamalda batareyalar o'sha davrdagi manbalarga ko'ra ehtiyotkorlik bilan joylashtirildi va ular qamal paytida tez-tez o'zgartirildi tayyorgarlik ishlari yakunlandi, Mehmet II imperatordan islom an'analari muvofiq shaharni taslim qilishni so'radi, ammo bu taklif qabul qilinmadi. Quruqlikdagi devorlar uzoq davom etishi hisoblab chiqilgani bois, dengiz flotiga tegishli kemalarning bir qismini quruqlikdan tortib, Oltin shoxga tushirish rejasi, ehtimol, oldindan o'ylab topilgan va hatto tayyorgarlik ishlari ham yakunlangan edi. kuchsizroq Oltin Shox devorlariga bosim o'tkazish uchun katta darajada kuchga kirgan, uzoq muddatli tayyorgarlik ko'rilgan va kemalar ham ishchi kuchi, ham mashinalar yordamida sirpanish yo'llariga tortilgan deb taxmin qilinadi ("cerra"). Tursun Beydagi (-i eskal"), bu jarayonlar bir necha kun davom etgandan so'ng Kasimpasha tizmasida birin-ketin saf tortildi va tunda birdan Oltin Shoxga tushirildi. Quruqlik devorlari jabhasida. Qamal yana kuchaydi. 6 - may kuni Bayrampasha oqimidagi devorlarga umumiy hujum. 16 - may kuni devorlardan o'tib, shaharga cho'zilgan katta er osti tunnel qazilgan, ammo Vizantiyaliklar tomonidan kashf etilgan bu tunnel qarama-qarshi tomondan qazilgan boshqa tunnel tomonidan qulab tushgan. Keyingi kunlarda, ayniqsa, to'plarning shaharga tushishi va ularning chiqargan ovozi shaharda qo'rquv va vahima muhitini kuchaytirdi, birin-ketin qazilgan tunnellar himoyachilar tomonidan topilib, qulab tushdi Biroq, odamlar ham, askarlar ham o'zlarining sabr-toqatini tugatdilar, etti haftalik qamal umidlari va yordam umidlarini yo'q qildi umumiy hujum yakuniy hujumni amalga oshirish uchun zaruriy rejalar bajarildi. 28- maydan 29 -mayga o'tar kechasi bayram tantanalari o'tkazib, atrofni shamlar bilan yoritgan Usmonli qo'shini, devor atrofini kun yorug'iday yorituvchi va Vizantiya xalqini dahshatga solgan bu chiroqlarni birdan o'chirish bilan yakuniy tayyorgarlikni yakunladi. ,

Vizantiyaning qulashi bilan yakunlangan oxirgi hujum 29 - may kuni ertalab sodir bo'ldi, ammo dengiz floti Marmara devorlarini blokirovka qildi Samatya va Azaz askarlarini qirg'oqqa hujumga o'tkazdilar, ular Edirnekapi va Topkapi oralig'idagi Bayrampasha vodiysi bo'ylab ba'zi joylarda vayron bo'lgan va ta'mirlangan devorlarga katta kuch bilan hujum qildilar askarlar vahima ichida kemalarga chiqish uchun Oltin Shoh portiga tusha boshlagan edilar. keyin birlashdi va Edirnekapida himoyachilarni o'rab oldi va ularni bir vaqtning o'zida uch nuqtadan o'rab oldilar va shaharga kirishga muvaffaq bo'ldilar. Shaharning qilich kuchi bilan zabt etilishi islomiy amaliyotga ko'ra talon-taroj qilish uchun ochiq bo'lishini anglatardi va askarlar shaharga deyarli har tomondan oqib kelayotgan Usmonli askarlari ko'plab asirlarni olib, Aksarayda birlashdilar va 3 kun davomida talon-taroj qilish huquqiga ega bo'ldilar. Ayni paytda, shahardagi mahalliy aholining bir qismi va italyanlar, Marmaradagi kemalarga yetib borishga muvaffaq bo'ldilar. ⁸

Shahar fathining tarixiy ahamiyati shundaki bu uning tarixida yangi rivolanish va uyg'unlashish davrini boshlab berdi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi . Shahar arxitekturasi nafaqat fotih davrida balki uning vorislari davrida ham boyitildi . Fotih shaharni fath etgach shaharning qadim arxitekturasi o'zgartirmadi aksincha unga ham - ohang ravishda milliy uslubni , arab uslubini zotan usmonli arxitekturasi arab uslubining na'munasi , g'arb uslubi bilan qo'shilib ketish jarayonini boshlab berdi . Buning namunasini esa usmonli hukmdolari tomonidan barpo etilgan murakkab arxitekturaviy yechimga ega inshootlar misolida ko'ramiz .

Bu inshootlar Usmoniylar Imperiyasining tarixida arxitekturaviy rivojlanishning hashamati sifatida qoldi . Bu borada birgina Mehmet Sultonning fathdan so'ngra bunyodorlikka qaratilgan islohotlarini

⁸ DÜNYA'YI TITREten HADİSE: İSTANBUL'UNFETHİ
FEYZA BURHANLI 4 -5 b

e'tirof etish o'rinli bo'ladi. Jumladan " Topkapi Saroyi " istanbul fathidan so'ngra Fotihning farmoniga asosan 1460 - 1478 -yillar orasida qurildi . Bu saroyning bunday nomlanishiga sabab Boyazittaki eski saroy nomining ta'siridan " Sarayi Jadidi Amire " deyilgan ortidan Toplu Kapi deb atalgan ko'shkning nomidan Top Kapi saroyi nomi ishlatilishi boshlangan .

Yana shunday tarixiy arxitektura majmuasidan biri bu Fotih Kulliyoti " Fatih Kulliyesi " sulton tomonidan 1463 - 1470 - yillar orasida barpo etilgan . " Fatih Kulliyesi " jomi , madrasalar , dorush - shifo , tobhona , imorat , karvonsaroy , sibyon maktabi , kutubhona , hammom , taqachilar chorsusi , va boshqalardan iborat . ⁹

Aslida bu turdagi imoratlar juda ko'plab qurilgan va ularning har biri bir tarix hisoblanadi . Yuqorida aytib o'tganimizdek foth va uning avlodlari shahar arxitekturasining o'zgarishiga emas balki uning qiymati ortishiga sababchi bo'ldilar .Bu o'rinda Sulton Sulaymon tomonidan 1551 - 1558 yillari o'z davrining eng mashhur me'mori Me'mor Sinon loyihasi asosida barpo etilgan " Sulaymoniya Majsidi " ham istanbul shahrining durdonasi hisoblandi , Bu masjid klassik usmonli me'morchiligining eng muhim misollaridan biri . Jome har biri uch sharafali (qoburga'li) 75 metr balandlikdagi 4 minoraga egadur . Masjid qubbasining balangligi 53 metrdur . ¹⁰

Yana ana shunday muhtasham me'moriy majmua bu Sulton Ahmet tomonidan XVII asrda me'mor Sinonning shogirdi bo'lmish Sadafkor Muhammad Og'a (Sedefkar Mehmet Ag'aga " barpo ettirgan "Sulton Ahmet Masjidi " ham turkiya hamda Istanbul shahri aexitekturasining noyob gujtojidur .Masjid devorlarida moviy rangdagi Iznik chinnilari qalin bir shakilda joylashtirilganligi uchun masjid " Mavi Camii " ya'ni " Ko'k Masjid " ham deyiladi .¹¹ Sulton Ahmet Camii (Sulton Ahmet Masjidi) .



Suleymaniye Camii (Sulaymoniya Masjidi) .

⁹ <https://www.sabah.com.tr/egitim/fatih-sultan-mehmet-doneminde-insa-edilen-yapilar-hangisi-fatih-sultan-mehmet-doneminde-insa-edilen-yapilardandir-e1-6528914>

¹⁰ <https://www.fatih.gov.tr/suleymaniye-camii>

¹¹ <https://www.kulturportali.gov.tr/turkiye/istanbul/gezilecek/yer/sultan-ahmet-camii>



Xulosa : Turkiya Yevro Osiyo Materigidagi ham qadimiyliги ham zamonaviyligi bilan mintaqadagi boshqa mamlakatlardan farq qiladi .

Bugungi Turkiyaning ijtimoiy hayoti , sanoati , turizmi , san'ati , madaniyati ,

va boshqa turli yo'nalishlardagi xilma - xilliklar bu mamlakatga qiziqishning ortishiga sabab bo'lmoqda . Ayniqsa bu shahar o'zining muazzam tarixini va bugunini birlashtirgan me'moriysi bilan ham o'zgachalik kasb etadi . Istanbul shahri mamlakatning eng qaynoq nuqtalaridan biri , shuningdek bu shaharning jozibası muhtasham me'moriy majmualari bilan Turkiyaning va Istanbulning tashrif qog'oziga aylanib ulgurganligi bir vaqtlar shahar hayotida muhim voqea hisoblangan fathning mukammal ko'rinishi natijasining bugungi Turkiya hayotiga ask etishi mintaqaning jahon integratsiyasi jarayoniga faol ishtirokini ta'minlamoqda .

Xalqaro Konfirensiyalar , Ko'rgazmalar , Festivallar o'tkazilishligi uchun aynan Istanbul shahrining tanlanishi shahar arxitekturasini namoyish etish imkoni ham beradi . Har bir mamlakatning o'z tashif qog'ozı bo'lgani kabi Turkiyaning ham Istanbul , Izmir , Izmit , Bursa kabi tashrif qog'ozlari bor ki bu xususiyati jahon ommasining e'tiborini jalb qilishi bilan birgalikda mintaqa tarixining ham o'rganilishiga keng yo'l ochib bermoqda .

Foydalanilgan Adabiyotlar :

1. <https://www.tarihincinden.com/2019/05/istanbulun-fethi-ile-ilgili-kehanetler.html?m=>.
2. Süheyl Ünver, Fatih Külliyesi, 1946, s. 160 v.d. ; F. Babinger, Mehmed's IL, des Eroberers, Mutter, Legende und Wirklichkeit. Münchener Beitrage zur Slavenkunde Festgabe für Paul Diels, München 1953.
3. https://t.me/ibtido_tarix.
4. <https://www.hurriyet.com.tr/egitim/fatih-sultan-mehmet-kac-dil-biliyor-ve-konusabiliyordu-42121078>
5. <https://www.islam> ve ihsan.com/istanbulun-fethi.html
6. Turgutlu Anadolu İmam Hatip Lisesi Tarih Dergi Ekibi İstanbul'un Fethi Fatih Sultan Mehmet Yayın No: 1Yayın Yönetmeni Varol ÖZTÜRK Tarih Öğretmeni Nurgül AKPINAR Araştırmacılar Yüksel AYDIN Mustafa AYDIN Recep ŞENTÜRK Fırat AKBAŞ Yusufcan YAĞIZ Dergi Tasarımı Ömer Faruk OKOLU Turgutlu Anadolu İmam Hatip Lisesi Fen ve Sosyal Bilimler Proje Okulu Selvilitepe Mh. Dursun Savcı Sk. No: 2 Turgutlu/ Manisa (2) b
7. https://www.kitapyurdu.com/kitap/ya-ben-istanbulu-alacagim-ya-istanbul-beni/269748.html?srsltid=AfmBOoryt9-nu8cRV_Eb3QGk4MYkj0T5pR8ehwTkiZnBmbH07tb1Q_M_



8. DÜNYA'YI TİTRETEN HADİSE: İSTANBUL'UNFETHİ
9. FEYZA BURHANLI 4 -5 b
10. <https://www.sabah.com.tr/egitim/fatih-sultan-mehmet-doneminde-insa-edilen-yapilar-hangisi-fatih-sultan-mehmet-doneminde-insa-edilen-yapilardandir-e1-6528914>
11. <https://www.fatih.gov.tr/suleymaniye-camii>
12. <https://www.kulturportali.gov.tr/turkiye/istanbul/gezilecek/yer/sultan-ahmet-camii>